

## **TURKIYA ANTAKIYADAGI O'ZBEKLAR TAKIYASI TARIXI**

**Bebitov Maqsud Abdirasulovich**

Denov Tadbirkorlik va pedagogika Instituti o'qituvchi

e-mail: [bebitovmaqsud@gmail.com](mailto:bebitovmaqsud@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*XII- asrda Yusuf Hamadoniy tomonidan Marv shahrida asos solingan so'fiylikning hojagan tariqatining davomi bo'lgan naqshbandiya tariqati[1] Bahouddin Naqshbandiy davrida Turkistonda keng tarqalib, keyinchalik Hindiston, yaqin sharq, hatto Xitoy va Indoneziyagacha kirib bordi[2]. Anatoliyaga esa XVI-asrda kirib kelgan[3]. Ammo uning Anatoliyada samarali faoliyati XV-asrning oxirlarida Abdullohi Ilohiy va Amir Ahmad Buxoriy bilan bog'liq bo'lib ushbu naqshbandiy darveshlaridan biri Amir Ahmad Buhoriy Istanbulning Fotih tumanida Naqshbandiy maskanini, so'ngra yana bir Naqshbandiy takiyasini Ayyonsaroyda qurdiradi[4]. Naqshbandiyalar XVI- asr boshlarida Istanbulda o'z mavqiyeni mustahkamlaganlaridan so'ng, ular Usmoniylar imperiyasining turli hududlariga tarqala boshladilar va naqshbandiylikni yoyilishi uchun boshqa viloyatlaridan ayniqsa haj ziyorat yo'lidagi Usmoniylar shaharlarda [5] Turkiston, Hindiston va Uzoq Sharqdan kelgan xojilarga xizmat ko'rsatish va tariqatlarini kengroq yoyish maqsadida takiyalar berdilar. Bu darvesh takiyalari Buxoro Takiyasi, O'zbek va Turklar Takiyasi va Hindlar Takiyasi kabi darveshlarning kelib chiqishi yoki kimligini aks ettiruvchi nomlar bilan atalgan.*

*Anadoluga kelgan birinchi naqshbandiyalar naqshbandiya tariqatining Ahroriyya tarmog'iga mansub Ubaydulloh Ahror tarafdorlaridir. Keyingi asrlarda Naqshbandiya tariqatining Kosoniy, Urmaviy, Mujaddadiy, Muradiy, Kuryoniy va Xolidiy tarmoqlari vakillari ergashdilar. Xususan XVIII asirda Mujaddadiylar XIX Xolidiylarning kelishi bilan Naqshbandiya tariqati Usmonli davlatida tez tarqaldi va Usmonlilar imperiyasidagi eng yirik tariqatlardan biriga aylandi[6].*

**Kalit so'zlar:** *Takiya, Turkiston, Naqshbandiy, Tariqat, Sofiy Antakiya, Anatoliya, Haj, shayx, darvesh, murshid.*

### **ABSTRACT**

*The Naqshbandi sect, a continuation of the Hajj sect of Sufism founded by Yusuf Hamadani in Merv in the 12th century, spread in Turkestan during the reign of Bahauddin Naqshbandi and later spread to India, the Middle East, and even China and Indonesia. He entered Anatolia in the 16th century. However, his fruitful activity in Anatolia was associated with Abdullah Ilahi and Amir Ahmad Bukhari in the late*

15th century. After the Naqshbandis consolidated their position in Istanbul in the early 16th century, they began to spread throughout the Ottoman Empire, spreading taqiyya to pilgrims from Turkestan, India, and the Far East. These dervish takiyas are called names that reflect the origin or identity of dervishes, such as the Bukhara Takiya, the Uzbek and Turkic Takiyas, and the Hindu Takiyas.

The first Naqshbandis to come to Anatolia were Ubaydullah Ahror, a member of the Ahroriya branch of the Naqshbandi sect. In the following centuries, representatives of the Kasani, Urmavi, Mujaddadi, Muradi, Kuriani and Khalidi branches of the Naqshbandi sect followed. In particular, in the 18th century, with the advent of the Mujaddids and the 19th Khalids, the Naqshbandi sect spread rapidly in the Ottoman state and became one of the largest sects in the Ottoman Empire.

**Keywords:** Takiya, Turkestan, Naqshbandi, Tariqat, Sofi Antioch, Anatolia, Hajj, sheikh, dervish, murshid.

### **АННОТАЦИЯ**

Секта Накибанди, продолжение секты хаджа суфизма, основанной Юсуфом Хамадани в Мерве в 12 веке, распространилась в Туркестане во время правления Бахауддина Накибанди, а затем распространилась на Индию, Ближний Восток и даже Китай и Индонезию. Он вошел в Анатолию в 16 веке. Однако его плодотворная деятельность в Анатолии была связана с Абдуллой Илахи и Амиром Ахмадом Бухари в конце 15 века. После того, как накибанди укрепили свои позиции в Стамбуле в начале 16 века, они начали распространяться по всей Османской империи, распространяя такийю среди паломников из Туркестана, Индии и Дальнего Востока. Этим дервиш-такии называются имена, отражающие происхождение или идентичность дервишей, такие как бухарская такия, узбекская и тюркская такия, а также индуистская такия.

Первыми накибандистами, прибывшими в Анатолию, были Убайдулла Ахрор, член ветви Ахрория секты Накибанди. В последующие века последовали представители секты Накибанди - Касани, Урмави, Муджаддади, Муради, Куриани и Халиди. В частности, в 18 веке, с приходом муджаддидов и 19-х Халидов, секта Накибанди быстро распространилась в Османском государстве и стала одной из крупнейших сект в Османской империи.

**Ключевые слова:** Такия, Туркестан, Накибанди, Тарикат, Софи Антиохия, Анатолия, Хадж, шейх, дервиш, муришид.

### **KIRISH**

**Antakiyada naqshbandiylar.** Antakiya Anatoliya, Rumeli, Kavkaz va Dashti Qipchoqdan Makkaga haj ziyorat yo'lidagi eng muhim yo'nalish markazlaridan biridir. Shuningdek Antakiyaga Turkistondan kelgan naqshbandiylar XIV-asrdan boshlab tashrif buyurgan bo'lsa kerak. Ammo bu haqda aniq ma'lumot yo'q. Biroq Antakiyadagi naqshbandiylar XVIII-asrdan boshlab faol bo'la boshlaganligini aniqsa aytish mumkin. Darhaqiqat, bu asrda Antakiyada uchta naqshbandiy takiyasi qurilgan. Ulardan birinchisi o'zbeklar takiyasi bo'lib, u yerda ilgari mavjud bo'lgan takiya Usmoniylar davlatining Halabdagi soliq yig'uvchisi Usmon og'a tomonidan ta'mirlanib, boshqaruvi 1710-yilda o'zbeklarga berilgan[7]. Ikkinchisi Hindistonlik naqshbandiylari tomonidan boshqarilgan va Asi daryosi bo'yida va Antakiya jome masjidining janubida al Xoji Husayn Afandi tomonidan qurilgan Hindilar takiyasidir[8]. Uchinchisi hech qanday maxsus nomga ega bo'lmagan faqat Naqshbandi takiyasi sifatida tanilgan. Bu takiya Jami Kabir tumanida Kathuda Usmon ismli shaxs tomonidan qurilgan.

Antakiyadagi naqshband takiyasi XVIII asrning birinchi yarmida tashkil topganligi bejiz emas. XVII asrning ikkinchi yarmida Usmonli imperiyasining yevropa davlatlari bilan uzoq va mashaqqatli kurashi butun mamlakat xavfsizligiga ham o'z tsirini o'tkazgan holda ziyorat yo'llarini ham xavf ostiga qo'ydi. Shu sababli, Usmonli ma'muriyati ziyoratchilarning xavfsiz sayohat qilishlarini ta'minlash uchun qayta qurish ishlarini boshladi[9]. Buyerlarda qurilgan naqshbandiy darvesh takiyalari tashkil etilishi shaharning iqtisodiy hayotiga ijobiy hissa qo'shgan. Qolaversa, tasavvufiy g'oyalari jamiyat tomonidan xususan ulamolar orasida yuqori baholangan va hurmatga sazovor bo'lgan[10]. Bu holat takiya shayxlarining shaharning xurmatga sazovar insonlar qatoridan joy olishiga imkon berdi. Bunga misol qilib, o'zbeklar takiyasining shayxlari bo'lgan shayx al Xoji Iso ibn Muso va Shayx Usmonniy takiya boshqaruviga olib kelishda shaharning taniqli shaxslari tomonidan qo'llab quvvatlanishi bunga misol bo'la oladi.

O'zbeklar takiyasi Asi daryosining g'arbiy qismida, Antakiyaning narigi tomonida joylashgan va o'tmishda "Salamet Mahallesi", bugun esa "Jumhuriyat mahallasi" deb ataladigan Surdi shahrida, shaharni suv bosgan ko'prik yaqinida tashkil etilgan. O'zbeklar takiyasining kim tomonidan va qachon qurilgani noma'lum bo'lsa-da, Atakiya qozisining 1719 yildagi taqdimnomasi O'zbeklar takiyasining shakllanishi haqida muhim ma'lumotlarni beradi. O'zbeklar takiyasi vaqf matni saqlanib qolmagan bo'lsa-da, takiyaning arxiv hujjatlarida vaqf matniga tez-tez murojaat qilingan. Bu ma'lumotlardan biri vaqf nomi "Nehri Asi Tekyesi Vakfi" deb tilga olingan[11]. Ma'lum bo'lishicha, ozbeklar takiyasining shayxligi uchun

naqshbandiy va o'zbek millatiga mansub bo'lish zarurat bo'lgan[12]. Bu shart takiyadagi boshqa vazifali shaxslarga ham bu yerdagi shart sharoitni bilgan va tushunadigan kishilardan tanlash sharti ilgari surilishi, o'zbeklar takiyasi nizomiga kiritilgan bo'lishi mumkin[13].

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

O'zbeklar takiyasi vaqf qilgandan ko'ra, takiya shayxiga kuniga 8 aqcha, imomga 5 aqcha, ishonchli vakilga 2 aqcha, vazifalari ko'rsatilmagan ikki takiyaning har bir xodimiga 2 aqcha to'langan, darveshlar va takiya mehmonlarga umumiy 15 aqcha miqdorida kunlik ovqatlanish uchun to'lov berilgan[14]. 1773-yilda Yekaterina II musulmonlarga nisbatan mo'tadil siyosat yurita boshlashi Makkaga boradigan ziyoratchilar soni ko'payishiga va shunga mos ravishda o'zbeklar takiyasidagi mehmonlar soni ham ortishiga sabab bo'ldi[15]. Bu holat takiya shayxlari va darveshlar uchun oziq-ovqat maoshlarining yetarli bo'lmasligiga olib keldi. Shundan so'ng, takiyaning shayxlaridan bo'lgan Shayx al Xoji Feyzulloh afandi 1799 yilda, unga ajratilgan 8 tangani 10 tangaga oshirishni talab qiladi[16]. Shayx al Xoji Fayzulloh afandi nima uchun oziq-ovqat maoshini emas, balki unga ajratilgan maoshni oshirishni talab qilganini tushuntirishning yetarli ma'lumotlar bo'lmaganligi uchun taxmin qilish mumkin xolos. Ma'lum bo'lishicha, shayxlar maoshlarini takiya xarajatlari uchun sarflaganlar.

#### **Takiya shayxlari.**

Usmoniy davlatida tariqat mansublarining tasiri ortishi bilan mamlakatda qurilgan takiyalar boshqaruvi ham muhim ahamiyat kasb eta boshladi xususan o'zbeklar takiyasida ham muhib bir maqom sifatida qaralgan. O'zbeklar takiyasining birinchi shayxi va imomi Shayx Mahmud O'zbekiydir. 1710-yil 25-yanvarda shayx va imomlik vazifalarini o'z zimmasiga olgan Shayx Mahmud O'zbekiydan keyin uning o'rniga Shayx Mahmud Tohir afandi keladi. Shayx Mahmud Tohir afandining 1719-yili vafoti bilan takiyaning shayx va imomlik vazifalarini Shayx xoji Iso ibn Musoga topshirildi[17]. Shayx xoji Iso ibn Muso 1730-yil 2-oktabrda shayxlik va imomlik vazifasida iste'fo etgandan ko'p o'tmay kasal bo'lib qolganidi bunday vaziyatda takiya darveshlaridan biri xoji Hamdulloh afandi, xoji Ashraf afandi, Sayyid Abdulloh afandi, Xoji Fayzulloh afandi, darvesh Abdurrahmon afandi, xoji Abdurrazzaq afandi, xoji Rajab afandi, Ivaz Mahmud afandi va Sayyid Niyoziy afandi shayxlik va imomlikni shayx Muxlisga topshirdilar[18]. Iso ibn Muso kasal bo'lgani bois o'z qarshiligini bildiradi olmadi. Biroq, xoji Iso ibn Musoga nisbatan adolatsizlik qilindi deb bilgan 30 nafar Antakyalik ulamo va ruhoniylar, Istanbulga borish uchun o'sha paytda Antakyadan o'tayotgan Madina qozisi xoji Mustafu afandi

bilan gaplashdilar va Madina qozi orqali Istanbulga vaziyatni xabar qildilar, xoji Iso ibn Musoning yana shayxligiga keltirilishini ta'minladilar. Bu vaziya takiya boshqaruvi uchun o'zaro kurashga aylandi va Shayx Muxlis shaxsan Istanbulga borib, Fenerda yashagan Usmon Kathudazoda Ismoil Afandi orqali Rumeli qoziaskari Sayyid Zaynalobidin Afandiga o'z iddolarini shunday ifodaladi, xoji Iso ibn Muso asli o'zbek emasligini, hatto Naqshbandiya tariqatiga mansubligi ham shubhali ekanini aytib, takiya shayxligini yana o'ziga berilishini ta'minladi[19]. Shayx Muxlis Istanbulda bo'lib turgan davrda xoji Iso ibn Muso tuzalib vazifasini o'zi bajara olishi mumkin ekanligi va Shayx Muhlisning o'zi haqidagi ifodalari asossiz ekanligini va shu sababdan avvalgi vazifalarini talabi bayon qilingan xati Istanbulga jo'natdi. Xoji Iso ibn Musoning xati Istanbulga yetib kelmasdan Shayx Muhlis vafot etdi. Uning vazifalari esa darvesh Abdurrahmon Balxiyga topshirildi. Xoji Iso ibn Musoga takiyaning shayxligi va imomligi shayx Abdurrahmon Balxiyga topshirilgani xabar qilingan. Ammo voqealar rivojini yaqindan bilgan qoziaskar Ibrohim afandi, Tophonadagi Qodirilar shayxi Ali afandi va Antakya mudarrislaridan Sarichezade xoji Ahmed afandi hamda Antakyaning ba'zi ulamolarining tashabbusi bilan takiya shayxligi va imomaligi yana xoji Iso ibn Musoga berildi[20]. 1743-yil 27-sentabrda xoji Iso ibn Musoning taklifi bilan takiyaning shayxligi va imomlik shayx Abdurrahmon Balxiyga topshirildi. Abdurrahmon Balxiyning Iso ibn Musoning xoxishiga ko'ra shayxlik va imomlikga kelishi ayni paytda Iso ibn Musoning xalifasi ekanligini ko'rsatadi. Shayx Muxlisning vafoti bilan takiya shayxligi va imomatining Shayx Abdurrahmon Balxiyga topshirilishi bunga bir dalildir[21]. Antakiyadagi o'zbeklar takiyasida shayxlik va imomlik keyingi davrlarda ham o'zbeklar idorasida bo'lgan masalan 1157 yilgacha takiyaning shayxi Shayx Zulfiqor bo'lgan. Shayx Zulfiqordan keyin 1770 yilda navbati bilan darvish Mulla Mahmud Zohid O'zbekiy va Antakya qozisi Sayyid Mustafo afandining taklifi bilan Shayx xoji Fayzulloh ibn Mirzo Ismatulloh O'zbeki takiya boshqaruvinini o'z qo'liga olgan[22]. Shayx xoji Fayzulloh afandi 1797-yil 17-martda o'g'li dervish Halil O'zbekiy foydasiga takiya shayxligi va imomlik huquqlaridan voz kechdi. Antakya noibi Hofiz Sulaymon afandining iltimosi va shayhulislom Mavlono Durrizoda Sayyid Orif afandining roziligi bilan 1802-yil 23-oktabrda takiya shayxligi maqomiga olib kelingan Darvesh Halil qisqa vaqt o'tib vafot etdi. 1802-yil 8-noyabrda takiya boshqaruvi shayx xoji Fayzulloh afandining iltimosiga ko'ra yana uning o'ziga berilgan. Shayx xoji Fayzulloh afandi 1805 yilning oxirlarida vafot etdi. Uning o'rniga shayx Usmon ibn Mehmed O'zbekiy ibn Shayx Niyoziy Buxoriy o'tirdi. Biroq naqshbandiya shayxlaridan biri Hoji Ivaz shayx Usmonning shayxligiga e'tiroz bildirar ekan, uning

shayx xoji Fayzulloh afandi tirikligida ush bu lavozimga kirishadigan shaxs sifatida rasmiy idoralar tomonidan ma'qullanganini e'lon qiladi. Shayxulislom Ahmad Said afandi bu e'tirozga ko'ra, shayxlik lavozimini Shayx Usmondan olib, 1806-yil 9-yanvarda Xoji Ivazga topshirdi. Biroq Antakyadan ba'zi ulamolar, ruhoniylar, Antakyadagi Qodiriy, Halvatiy va Naqshbandi shayxlari va harbiy zobitlar bu holatga e'tiroz bildirdilar. Ular o'z e'tirozlarini bildirgan va shayxlikni Shayx Usmonga berishni taklif qilgan ariza tayyorlab, Istanbulga jo'natdilar. Yuqorida tilga olingan xatda bayonida bir qator sabablar ko'rsatilgan. Xususan shayx Usmonning Naqshbandiy tariqat mansubi va o'zbek ekanligi, takiya shayxligi maqomining birinchi shartiga mos ekanligi yozilgan. Bundan tashqari, Shayx Usmon solih inson bo'lib, diniy va dunyoviyi imlarni ham yaxshi bilishi hatto ko'p vaqtini davlatning umr boqiy bo'lishini istab duo qilish bilan o'tkazishi, takiya boshqaruvida unga to'sqinlik qiladigan katta oilasi yo'qligini ham yozilgan yuqoridagi sabablar uchun shayxlik unvonini Shayx Usmon berish taklif qilindi[23]. O'ttiz to'qqiz kishining imzosi bo'lgan xat shayxlik lavozimining yana Shayx Usmonga berilishini ta'minladi. Shayx Usmon qaysi sanaga qadar shayxlik vazifasini davom ettirgani va undan keyin kimlar bo'lganligi haqida hozirgacha hech qanday ma'lumot topilmagan.

#### **Takiyaning doimiy a'zolari va musofir(mehmon)lari.**

O'zbeklar takiyasining eng muhim azosi shayx(Murshid) bo'lib, u ustoz hisoblanadi. Shayx takiyani boshqarish va izdoshlarining tasavvufiy tarbiyasi uchun javobgardir. U takiyani obod qilish hamda takiya darvesh va mehmonlarining farovonligini ta'minlovchi shaxs sifatida masuldir. Demak, takiyaning mavjudligi shayxga bog'liq.

Shayxga o'z vazifalarini bajarishda yordam bergan yoki shayxning vorisi sifatida qabul qilingan xalifani shayxdan keyin takiyaning ikkinchi muhim shaxs deb hisoblash mumkin. Xalifalar shayx oilasidan yoki shayx bilan qon qarindoshligi bo'lmagan shogirdlardan ham saylanishi mumkin bo'lgan[24]. Shayx Fayzullohning o'g'li Darvish Halilni xalifa etib tayinlashini oila a'zolaridan qilingan saylovga misol qilib keltirish mumkin. Shayx Fayzullohning takiya darveshlaridan Shayx Usmonni xalifa etib tayinlashi shayx bilan qon qarindoshlik aloqasi bo'lmaganligi ham bunga misol bo'la oladi[25].

Takiyaning boshqa a'zolari darveshlardir. Darveshlar shayx va xalifaning suhbatlarida qatnashib, ma'naviy kamolotga erishishni maqsad qilgan, takiyaning turli vazifalarini bajaradigan kishilar bo'lgan.[26]Ma'naviy kamolotga erishgan darveshlar avval xalifalikka, keyin esa murshidlikka darajasiga ko'tarilishi mumkin edi. Xalifalik vakolatiga ega bo'lganlar, Makkadan tashqarida naqshbandiylik

tamoyillarini yoyish vazifasi yuklatilgan. Bir paytlar takiyaning darveshlaridan bo'lgan Shayx Fayzulloh ustozlar huzuriga aytishib darveshlikdan shayxli darajasigacha ko'tarilgan[27]. Bedirgadagi kichik arablar deb nomlangan jamoaning imomi bo'lgan Abdulholiq ibn Abdussattorni takiyadan tashqarida vazifaga tayinlanganlarga o'rnatib qilib ko'rsatish mumkin.

Turkistonlik ziyoratchilar, ulamolar, shayxlar va savdogarlar takiyaning doimiy mehmonlari hisoblangan[28]. Ushbu musofir mehmonlar orasida eng ko'p joy egallaganlar, ehtimol haj ziyoratchilardir. Chunki har yili Turkistondan Makkaga borish uchun yo'lga chiqqan ba'zi haj ziyoratchilar uzoq va mashaqqatli bo'lsa ham Qrim-Istanbul-Anadolu yo'lidan yurar edilar, sababi bu yo'l Istanbul yani xalifalik markazi bo'lgani uchun ahamiyatli edi[29]. 1856 yilda O'zbeklar takiyasida vafot etgan buxorolik xoji Ali bin Husayn ham ana shunday ziyoratchilardan biridir. Ko'rinib turibdiki, "O'zbeklar takiyasi" nafaqat Turkiston xalqi, balki islom olamining turli burchaklaridan kelganlar uchun ham o'z eshiklarini ochganligi bilinmoqda[30]. Darhaqiqat, Hindlar takiyasi shayxi Shayx Abdulhabibning vafoti bilan uning idorasi va takiyasi ta'mirlab olgunicha va takiyaga kelgan hind ziyoratchilari 1819 yili O'zbeklar takiyasida vaqtincha istiqomat qilganlar[31].

## **XULOSA**

Turkiyada tashkil qilingan boshqa o'zbek takiyalari singari Antakiyadagi "O'zbeklar takiya"si ham Turkistondan va islom olamining turli burchaklaridan yordam Usmonlilar imperiyasining muqaddas yerlar ustidan hukmronligining tabiiy natijasidir. Takiya ma'muriyati butunlay o'zbeklarga tegishli bo'lib, bu narsa shayxni, eng kamida Antakiyadagi o'zbeklarning vakili bo'lgan takiyani boshqarishga mas'ul qilib qo'ygan. Shu nuqtai nazardan takiyalar Buxoro xonligi bilan Usmonlilar imperiyasi o'rtasida ko'priq vazifasini o'tagan. Shayxlarni tanlashda vaqti-vaqti bilan nasl-nasabga asoslangan yondashuvning namoyon bo'lishi odatda takiyada xizmat qilgan, Naqshbandiya tariqatida kamol topib, ham shaharning zodagonlari bilan ham Istanbuldagi mutasaddi va ulamolar bilan mustahkam aloqada bo'lganlar kishilar shayx etib tayinlangan. Ma'lum bo'lishicha, Istanbuldagi aloqalar Istanbuldagi o'zbek takiyalari orqali o'rnatilgan. Bu holat o'zbek takiyalari o'rtasida mustahkam birdamlik mavjudligini ko'rsatadi. Boshqa tomondan, Antakiyadagi O'zbek takiyasining boshqa takiyalari va so'fiylik mazhablari bilan hamjihatlikda ekanligi ko'rish mumkin.

## **REFERENCES**

1. Hamid Algar, "Hojagon", Diyonat ishlar inseklopediasi, 14 jild, (1996), bet 431.

2. Thierry Zarcone, Taqiqlangan shahar Buxoro 1830-1888, tarjimon, Ali Berktaý, Istanbul 2001, bet. 61; Mustafa Kara, Tasavvuf va Mazhablar tarixi, Istanbul 2003, bet. 231
3. Rifat İlhan Chelik, "Anatoliyada Naqshbandiylikning paydo bo'lishi omillari: Shayh Hoja Ishoq er Rumiyning vaqfi", Vaqflar jurnali, bet. 50 (2018), b. 25.
4. Nejdət To'sun, "Nakshbandiyya", Turkiyada mazhablar Tarixi va Madaniyat, Semit Jayhan Istanbul 2011, bet. 628-629; Dina 'Le Gali, Usmonliyar imperiyasida naqshbandiylik, tarjimon, Irfan Kelkitli, Istanbul 2016, bet. 75-81; Reshat O'ngo'ran, Usmonliyada tasavvuf, Anatoliyada so'fiylik, davlat va ulamo, Istanbul 2000, bet. 117-121.
5. Bular Bursa, Afyon, Adana, Antakya, Halab, Quddus, Jidda, Bag'dod, Makka, Madina va Qohira shaharlaridir. (Seda Yilmaz, O'zbek takiyalari, Sakarya universiteti Ijtimoiy fanlar instituti, nashr qilinmagan magistrlik dissertatsiyasi, Sakarya 2007, 18-29-betlar); Thierry Zarcone, Kiprdagi Markaziy Osiyo va Hind so'fiy ziyoratchilari, tarjimon. Berna Akkiyal, Istanbul 2012, bet. 33, 48-53.
6. Dina Le Gall , Usmonlilar imperiyasida naqshbandiylik, Tarjimon. Irfan Kelkitli, Istanbul 2016 yil. b 119.
7. BOA, C.EV: Bosh Vazirlik Usmonli Arxivi Jevdet Evkaf 137/6804.
8. Fuat Shanji, Hatay viloyatidagi turk arxitekturasi, Anqara universiteti Ijtimoiy fanlar instituti, nashr qilinmagan doktorlik dissertatsiyasi, Anqara 2006, bet. 675.
9. Marmara universiteti Turkshunoslik instituti, nashr qilinmagan doktorlik dissertatsiyasi, Istanbul 2015, bet 532 "Ülkü Tecimen"17. va 18. asrlarda Antakiya tumanida boshqaruv, Usmonli arxiv hujjatlari asosida Antakya, Istanbul 2014, bet 32-33.
10. XVI-asrda Reshat O'ngo'ren ulamolarning naqshbandiylikka xayrixoh bo'lishini naqshbandiya shayxlarining ko'pchiligi madrasalarda ta'lim olganligi, naqshbandiya olimlari ulamolarning so'fiylik haqidagi ba'zi cheklashlarini olib tashlaganliklari va madrasa a'zolarining Naqshbandiylikka xayrixohligi bilan bog'laydi. ish joylarini tark etmasdan naqshbandiya takiyalarida so'fiy ta'limini olar edi 392.
11. BOA, C.EV: Bosh Vazirlik Usmonli Arxivi Jevdet Evkaf 295/15047.
12. BOA, C.EV: Bosh Vazirlik Usmonli Arxivi Jevdet Evkaf 82/4080; BOA. C.EV. 295/15047
13. Halim Baki Kunter, "Tarsusdagi Turkiston Zaviylarining asoslari" Vaqflar jurnali, №. 6 (1965) bet. 32.
14. BOA, C.EV: Bosh Vazirlik Usmonli Arxivi Jevdet Evkaf 82/2080, 295115047; 338/17187; 533126905;



- 
15. Daniel Brower, "Russian Roads to Mecca: Religious Tolerance and Muslim Pilgrimage in the Russian Empire", Slavic Review, Vol. 55 (1996), bet. 567.
  16. BOA, C.EV: Bosh Vazirlik Usmonli Arxivi Jevdet Evkaf 288/14653.
  17. BOA, C.EV: Bosh Vazirlik Usmonli Arxivi Jevdet Evkaf 137/6804.
  18. Shayx Muxlis o'zbek ulamosiga mansub bo'lib, shayx xoji Iso ibnMuso kasal bo'lib, takiyani boshqarishni o'z qo'liga olmoqchi bo'lganida takiyaga kelgan. (BOA. CH. Bosh Vazirlik Usmonli Arxivi 494/24998; BOA. C.ET, Bosh Vazirlik Usmonli Arxivi.338/17187.)
  19. BOA. C.ET, Bosh Vazirlik Usmonli Arxivi 338/17187.
  20. BOA. C.ET, Bosh Vazirlik Usmonli Arxivi 338/17187, Küçük Chelebizade Ismoil Asim Afandi, Munsheat Asim Afandi, Hz. Fahri Unan, Anqara 2013 yil
  21. BOA. C.ET, Bosh Vazirlik Usmonli Arxivi 338/17187.
  22. BOA. C.ET, Bosh Vazirlik Usmonli Arxivi 533/26905; 298/20190